

QATOR KELGAN UNLILAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Qulliyeva Gulbahor Eshqobilovna

Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani,

53-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi birinchi toifali

Ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Anotatsiya: Mazkur maqolada qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib. Bundan tashqari unli tovushlar va imloviy xatolarni o'rganish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Unlilar, talaffuz, imlo, imloviy xatolar, unli tovushlar, tovushlar, fonema, o'zbek tili.

Annotation: This article provides information about the pronunciation and spelling of the following vowels. In addition, information is provided on the study of vowel sounds and spelling errors.

Key words: Vowels, pronunciation, spelling, spelling mistakes, vowels, sounds, phonemes, Uzbek language.

Аннотация : В этой статье представлена информация о произношении и написании следующих гласных. Кроме того, представлена информация по изучению гласных звуков и орфографических ошибок.

Ключевые слова: Гласные звуки, произношение, правописание, орфографические ошибки, гласные, звуки, фонемы, узбекский язык.

Unli tovushlar nima..?

Unli tovushlar – og'iz va bug'iz boshlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay hosil bo'ladigan, tarkibi ovozdin iborat (shovqin deyarli ishtirok etmaydigan) tovushlar. Har bir til o'ziga xos unlilar tizimiga ega. Tildagi unlilar tizimi vokalizm (lotincha: vocalis – unli tovush) deyiladi. Unli tovushlar soni turli tillarda turlichadir. Mas, hozirgi o'zbek adabiy tilida Unli tovushlar 6 ta balsa, boshqa turkiy tillarda 8 ta, 10 ta va undan ham ortiqdir. Bu miqdor rus tilida 5 tani, fransuz tilida esa 18 tani tashkil etadi.

Unli tovushlar bir necha jihatdan tasnif etiladi. Bu tasniflarning o'zbek tilidagi 6 ta unli fonema (i, e, a, o, u, o') misolida ko'rib chiqish mumkin. Unlilar dastlab tilning harakati va labning holati (ishtiroki) nuqtai nazaridan turlarga ajratiladi. Tilning harakatida 2 hodisa farqlanadi: tilning yotiq (yonlama) harakati; tilning tik (vertikal) harakati. Tilning yotiq (yonlama) harakatida hosil bo'lish o'rniga ko'ra unlilar 2 turga bo'linadi: tiloldi (yoki old qator) unlilari – i, e, a hamda tilorqa (yoki orqa qator) unlilari – o, u, o'. Tilning tik harakatiga ko'ra Unli tovushlar 3 turga bo'linadi: yuqori ko'tarilish unlilari (i, u), o'rta ko'tarilish unlilari (e, o'), quyi ko'tarilish unlilari (a, o).

Labning holati (ishtiroki)ga ko'ra unlilar 2 ga bo'linadi: lablangan unlilar (u, o') va lablanmagan unlilar (i, e, a, o). Lablangan unlilar talaffuz qilingan vaqtda lablar faol ishtirok etadi: lab cho'chchayib, oldinga chiqadi, dumaloq shakl oladi. Lablanmagan unlilar talaffuzida lablar ishtirok etmaydi yoki lablar ishtiroki passiv bo'ladi.

Tovushning hosil bo'lishida ketadigan vaqtning miqdoriga ko'ra Unli tovushlar 2 turga bo'linadi: cho'ziq unli; qisqa unli. Cho'ziq unli davomli (cho'ziq) talaffuz etiladigan Unli tovushlardir. Bunday tovushlar ko'pincha ma'no farqlash uchun xizmat qiladi. Bu hodisa turkiy tillarning ba'zilarida, shuningdek, ayrim o'zbek shevalarida uchraydi. Mas, turkman tilida a:ch (krrnim och) va ach (eshikni och), ba:r (menda bor) va bar (ishga bor), a:t (nom, ism) va at (yilqi) va boshqa Qisqa unlilar talaffuziga cho'ziq unliga nisbatan oz vaqt ketadi.

Qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi

O'zbek tilida ikki unlining bir o'rinda kelishi mutlaqo kuzatilmaydi. Bunday so'zlar o'zbek tiliga arab, rus yoki boshqa tillardan o'tgan hisoblanadi. Masalan, doim, maorif, qiroat, mudofaa, taajjub, stadion, geografiya va b.

Adabiy talaffuz va imlo me'yoriga asosan qator unlilar oa, ao, ia, ai, io, aa tarzida aytiladi va shunday yoziladi. Qator kelgan unlili so'zlar boshqa tillardan kirib kelganligi tufayli bunday so'zlardagi qator unlilarni og'zaki nutqda yo bir cho'ziq unliga aylantirish (masalan, muallimni ma:lim) yoki qator kelgan unlilar o'rtasida ayrim undoshlarni qo'shish yo'li bilan tilimizga moslashtirishga harakat qilinadi. Masalan, soat so'zi Farg'onada sohat, Toshkentda sog'at tarzida.

Oid, tabiat, shoira, doir, Said, ukrain kabi so'zlar talaffuzida unlilar orasida "y" undoshi qo'shib aytilsa-da, yozuvda tushib qoladi.

Undoshlar tasnifi

Undosh tovushlarning hosil bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i va til muhim ahamiyatga ega. O'pkadan chiqayotgan havo xuddi mana shu joylarda turli xil to'siqlarga duch keladi. Buning oqibatida esa undosh tovushlarning hosil bo'lishi uchun yetarli shart-sharoit yaratiladi, ba'zi hollarda unga jarang ham qo'shiladi. O'zbek tilida undosh tovushlar 23 ta: b, v, g, d, z, j, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h, ng.

Bu undosh tovushlardan bittasi – ng yozuvda maxsus belgilar bilan berilmaydi.

Undosh tovushlar uch tomondan tasnif qilinadi:

I. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra:

1. Lab undoshlari:

- lab-lab undoshlari: b, p, m;
- lab-tish undoshlari: f, v. (f tovushi fors-tojik tili ta'sirida paydo bo'lgan)

2. Til undoshlari:

- til oldi undoshlari: d, t, z, s, sh, j, ch, n, l, r;
- til o'rta undoshi: y;

- c) til orqa undoshlari: g, k, ng;
d) chuqur til orqa undoshlari: q, g', x.

3. Bo'g'iz undoshi: h.

II. Hosil bo'lish usuliga ko'ra:

- a) portlovchilar: b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng;
b) sirg'aluvchilar: v, f, z, s, y, r, l, sh, g', x, h;
c) qorishiqalar: ch, dj

Unlilar imlosi.

Yangi imlo qoidalarida unli harflarning yozilishiga keng o'rin ajratilgan.

-A a harfi savol, zamon, bahor so'zlarida «o» kabi aytilsa ham har vaqt «a» yoziladi.

-O o harfi boshqa tillardan kirgan quyidagi so'zlarda «a» singari talaffuz etiladi, biroq hamisha «o» yoziladi: kollej, monitoring, dekoratsiya, omonim, okulist va h.k.

Shuningdek, o ba'zan o' kabi aytilishi ham mumkin, lekin baribir «o» yozilaveradi: tonna, noyabr, boks, tort va h.k.

-Ii harfi bilan, bilim, til, tilak, har xil, qism kabi so'zlarda qisqa aytiladi va «i» yoziladi, badiiy, ommaviy, Lutfiy singari so'zlarda «i» cho'ziq aytiladi, lekin doimo «iy» yoziladi.

-Uu harfi yutuq, butun, tovuq, sovuq, sovun kabi so'zlarda «i»ga monand talaffuz etilsa-da, qoidaga binoan «u» yoziladi.

-O'o' harfi o'zbek, o'lka, o'simlik kabi so'zlarda old qator, o'rta-keng, lablangan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi.

-E e harfi e'lon, ehtirom, fe'l, bermoq, meros, mone, tole, kofe kabi so'zlarda old qator, o'rta-keng, lablanmagan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi:

-«e», «ë», «ю», «я» harflari yangi alifboda quyidagicha yoziladi:

e: yetti, yetmish, yetim;

yo: yolg'iz, yomon, yong'oq;

yu: yulduz, yumshoq, yumuq.

ya: yakka, yangi, yaroqsiz.

Milliard, material, million, radio, ukrain, said, doim, shoir, teatr, okean singari so'zlar talaffuzida unlilar orasida «y» undoshi qo'shib aytilsa-da, yozuvda tushib qoladi.

Taassurot, taalluqli, taajjub, matbaa, saodat, maorif, muomala, inshoot kabi so'zlar o'rtasidagi unlilar yozuvda saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.<https://azkurs.org/1-mavzu-kirish-milliy-til-va-adabiy-til-adabiy-tilning-ogzaki.html?page=10>

2.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Unli_tovushlar

3.<https://diktant.uz/lesson/unlilar-imlosi>